

## XAMSACHILIK AN'ANASI VA UNING NAZARIY-ESTETIK ASOSLARI

(Abduqodir Hayitmetov tadqiqotlari misolida)

**Zarif QUVONOV,**

*Navoiy davlat universiteti doktoranti, (PhD)*

*sevnildil@gmail.com*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20676938>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada atoqli navoiyshunos Abduqodir Hayitmetovning Alisher Navoiy “Xamsa”si yuzasidan olib borgan tadqiqotlariga munosabat bildirilgan. Olimning xamsashunoslikdagi ilmiy kashfiyotlari hanuz o‘z ilmiy qimmatini saqlab kelayotgani haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** tadqiqot, “Xamsa”, navoiyshunoslik, talqin, epik asar, doston, poetika, obraz, tasavvuf, islom.

**Аннотация.** В статье рассматриваются исследования известного навоийского учёного Абдукадира Хайтметова по произведению Алишера Навои “Хамса”. Научные открытия исследователя в области изучения хамсы до сих пор сохраняют свою научную ценность.

**Ключевые слова:** исследование, “Хамса”, навоийские исследования, интерпретация, эпическое произведение, эпос, поэтика, образ, суфизм, ислам.

**Annotation.** This article examines the research of renowned Navoi scholar Abdukadir Khaitmetov on Alisher Navoi’s “Khamsa”. His discoveries in the field of khamsa studies continue to retain their scientific value.

**Key words:** research, “Khamsa”, Navoi studies, interpretation, epic work, poetics, image, Sufism, Islam.

Muayyan adabiy asar poetikasi tadqiqida uning muallifi ijodiy dunyoqarashi, badiiy olami va ijodkorning adabiy muhit hamda o‘zigacha bo‘lgan an’anlardan oziqlanganiga guvoh bo‘lamiz. Shu jihatdan, qadim Sharq adabiyoti ildizlari ma’lum ijodiy an’analar ta’sirida bo‘lganini, diniy-tasavvufiy, falsafiy-adabiy manbalar va xalq og‘zaki ijodiga borib taqalishi ular o‘rtasidagi uzviylikni yuzaga keltiradi.

Atoqli adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetov Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari, lirik merosini o‘rganish bilan birga shoirning epik asarlari, xususan “Xamsa”ga doir ko‘plab tadqiqotlar yaratgan.

Abduqodir Hayitmetov Navoiy “Xamsa”sini tekshirishda dostonlardagi ijtimoiy masalalar talqiniga alohida e’tibor qaratadi. Uning “Xamsa” qahramonlarining ijtimoiy muhitga munosabati masalasi” maqolasi bu borada umumlashtiruvchi mazmunga egaligi bilan ahamiyatlidir. Badiiy adabiyotdagi har bir voqea-hodisa,



qahramonlarning xatti-harakati, taqdiri, xarakteri muayyan ijtimoiy muhitda shakllanadi va yuzaga chiqadi. Alisher Navoiyning real muhitga munosabati “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlaridagi obrazlar orqali yorqinroq namoyon bo‘lgani, muhit bilan shaxs o‘rtasidagi ziddiyat masalasiga e‘tiborni jalb qilgan.

Olim “Navoiy dostonlaridagi realistik xususiyatlar” maqolasida “Xamsa” dostonlarida namoyon bo‘lgan realistik tasvir unsurlarini ko‘rsatishga harakat qiladi. Shuningdek, Farhod obrazi tasviri orqali xamsachilikda ideal qahramon tasviri yangi bosqichga ko‘tarilganini ta’kidlaydi. Har qanday badiiy obrazga xos xarakter belgilarining hayotiyliigi sharoit, muhit xususiyatlari bilan asoslanishi kerak, deb hisoblagan Hayitmetov Farhod obrazi tabiatida ilohiylik bilan real hayotiylik uyg‘unlashib ketganligini ko‘rsatib o‘tadi. Olim Navoiyning boshqa asarlari kabi “Farhod va Shirin” ham islomiy g‘oyalarga to‘yingan asar ekani, shu bois unda real sharoit tasviri bilan bir qatorda taqdiri azal talqini tushunchasi ham muhim o‘rin tutishi tabiiy ekanini qayd etadi. Hayitmetov “taqdir”ni shunday talqin qiladi: “Agar biz “taqdir” deganda faqat ilohiy istak va qudrat tushunchasini emas, balki unga kengroq va chuqurroq ma’no berib, uning ostida ma’lum darajada jamiyat va sotsial muhitni ham, shu jamiyatdagi kishi hayoti, baxtini va baxtsizligini belgilovchi tartib va qoidalarni ham tushunsak, mohiyat e‘tibori bilan to‘g‘riroq bo‘ladi”[1. 29].

Navoiyning chinakam novator ijodkor bo‘lganiga alohida urg‘u berib, uning novatorligini Nizomiy, Dehlaviy asarlari syujetini butunlay qaytadan ishlagani, qahramonlarning xarakterlarini tubdan yangilaganida ko‘radi. “Navoiyning novatorligi... an’ana doirasida, unga yaqindan bog‘langan holda sodir bo‘ladi”, – deb to‘g‘ri ta’kidlaydi. Novatorlik tushunchasi adabiyot tarixining hamma davrlarida ham bugungiday ma’no anglatmagani, Alisher Navoiy davrida an’anani inkor etmasdan, uning qolipini buzmasdan turib, yangilik yaratish lozim bo‘lganini aytadi. Unga qarashicha, novatorlik yangi syujet asosida asar yaratishda emas, balki ma’lum syujetni qayta ishlab uning ta’sirida yangi asar yaratishdir.

Olimning fikricha, Navoiyning novatorligi Xusrav va Farhod obrazlari talqinida salaflaridan tamomila o‘zgacha yo‘l tutganida namoyon bo‘ladi. Natijada, Navoiy asarining kompozitsiyasi, syujet liniyasi ham maksimum o‘zgarib, tasvir markaziga Farhod bilan Shirin munosabatlari chiqadi. Bu hol dostonga ariq qazib, suv chiqarish, bosqinchilarga qarshi kurash, ojizlarga yordam berish singari xalqona motivlarni kiritish imkonini ham berganini aytadi.

Ustod “Xamsa” asaridagi eng dardchil doston bo‘lmish “Layli va Majnun”ga ham umidbashlik xos ekanini: “Umri faqat azob-uqubat, ranj-alamda o‘tgan, o‘z ta’biri bilan aytganda, yonmay, tutab tugayotgan Layli oxirgi damlarida ham hayotdan norizo

bo‘lmaydi, kelajakka umid va nekbin ko‘z bilan boqadi”[2. 6],– deya izohlaydi. Olim bu fojiaviy dostonda muallif asar qahramonlariga qo‘shilib, ular bilan hamdardu hamroz bo‘lib ketganini doston oxirida shoir tomonidan qilingan “*Yig‘lay-yig‘lay tugatdim oxir*” degan iqrorga tayanib asoslaydi.

A.Hayitmetov “Sab‘ai sayyor” dostonidagi Bahrom obrazi, uning xarakteri an‘anaviy yondashuvlardagidan tamomila o‘zgartirib, qaytadan ishlanganiga e‘tibor qaratadi. Navoiyning bu asarda asosiy urg‘uni yetti musofirning hikoyasida ilgari surilgan ilg‘or g‘oyalarga berganiga e‘tibor qaratadi. Bu hikoyalarning aksariyatiga o‘zbek xalq ertaklari asos bo‘lgani, ular dostonga o‘zgacha badiiy xususiyat baxsh etganini: “...har bir haqiqiy ulug‘ shoir o‘z xalqining manfaatlari bilan yashaydi, o‘z xalqining orzu va havaslarini kuylaydi. Navoiy asarlarining bosh manbai ham o‘zbek xalqining hayoti va intilishlarida edi. Bu esa ob‘ektiv ravishda Navoiy ijodining g‘oyaviy va badiiy yo‘nalishiga zo‘r ta‘sir ko‘rsatar edi”[3. 126], – tarzida ta‘kidlaydi. Ayni vaqtda olim dostonidagi Zayd Zahhob haqidagi hikoya Uyg‘onish davri Yevropa adabiyotining Ludoviko Ariosto, Makiavelli, Tasso, Erazm Rotterdamskiy, Fransua Rable kabi namoyandalari asarlarni bilan har tomonlama hamohang ekanini, bu esa Navoiy ijodining Sharq adabiyoti doirasidagina emas, jahon adabiyoti doirasida ham yuksak cho‘qqilarga ko‘tarila olganini ko‘rsatuvchi yorqin dalil bo‘lganini qayd etadi.

Navoiyshunos “Xamsa”dagi har bir o‘ziga xoslik borasidagi qarashini ham dostonlar tasviridagi betakrorlik, ham shoirning o‘z iqroriga tayangan holda asoslashga intiladi. Bu hol “Saddi Iskandariy” dostonida mundarija va shaklga tegishli yangiliklar kiritgani borasida Navoiyning o‘z tilidan qilingan iqrorni keltirganida ham ko‘rinadi:

*Maalqissa: ayturda ul masnaviy,  
Agarchi bor erdim alar payravi,  
Vale der zamon qaysi bir daftarin.  
Sochib bahri andeshaning gavharin,  
Anga zebu ziynatlar ettim fuzun –  
Ki, vasfi erur sharh etardin uzun*[4. 55-56].

Olim Navoiy o‘z davrining ulug‘ shoirigina bo‘lib qolmay, buyuk davlat arbobi ham ekani uning “Xamsa”si saviyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatganini qayd etadi. Bu holat “Saddi Iskandariy” dostonining oxirgi boblaridan birida Qirvon navohisida ulug‘ devor qurilishi tasvirida namoyon bo‘lganini bayon qiladi. Ezgulik devori qurilishiga Iskandar rahbarlik qilishi, bu ishda butun dunyo xalqlari qatnashgani va shu hamkorlik tufayli odamlar balodan qutulgani tasviriga tayanib, shunday xulosaga keladi: “Navoiy fikricha, dunyo xalqlari birlashsalar, ularga dono kishilar rahbarlik qilsa, xalqlar har qanday to‘siqni, har qanday xavf va baloni yengishlari mumkin. Mazkur muammoni bu

xilda hal etish, masalaga bu xilda qarash bizning kunlarimizda ham katta donishmandlikdan darak beradi”[5. 72] U Navoiy shaxsiyati va ijodini jahon adabiyoti aspektida o‘rganish g‘oyat zarur va kelajakda, albatta, e‘tibor qaratilishi zarur bo‘lgan ilmiy muammo ekanini alohida ta’kidlaydi:

Ustoz “Xamsa” asarini yuksak iste’dodli muallif tomonidan yaratilgan shunchaki bir asar hisoblamaydi, balki uni turkiy xalqlar hayotidagi ulkan tarixiy voqea, deb biladi. Olim bu hodisada ham millatimiz intellektual-ijodiy imkoniyatining nechog‘liq yuksakligi, ham tilimiz ifoda qudratining qanchalik cheksiz ekani singari haqiqatlar yuzaga chiqqan, deb hisoblaydi: “Xamsa”ning yuzaga kelishi XV asrda juda katta tarixiy voqea bo‘lgan edi. Bu o‘zbek xalqi madaniyatining jahon adabiyoti saviyasiga, o‘zbek ziyolisining esa yetuklik darajasiga ko‘tarilganidan darak berar edi”[6. 73].

“Xamsa”ga doir kuzatishlarida tadrijiylik bilan birga fikr-qarashlardagi o‘zgarishlar ham ko‘zga tashlanadi. O‘zining badiiy adabiyotda realistik tasvirning tutgan o‘ringa munosabat tarzini ham bir qadar o‘zgartirib, “Xamsa” tarkibidagi dostonlarda reallik qancha katta o‘rin tutgan bo‘lsa, majoziylik, shartli tasvir ham shunday xarakterga ega degan to‘xtamga keladi. Uning “Navoiy dostonlarida shartli tasvir” maqolasida bu masala alohida tekshiriladi. Realistik asarlarda hayot qanchalar chuqur ifodalangan bo‘lsa, mifik, majoziy va romantik asarlarda ham yuksak axloqiy va falsafiy fikrlar mislsiz darajada yorqin va keng talqin etilishi mumkin degan yangi qarashlarni bayon etadi. Unga ko‘ra, Navoiy asarlarini, xususan, dostonlarini faqat realistik yo‘nalishdagina tahlil etish to‘g‘ri emas.

Shuni ochiq aytish kerakki, Abduqodir Hayitmetovning, umuman, navoiyshunoslik, xususan, “Xamsa” asari yuzasidan qilgan barcha tadqiqotlaridagi qarashlar to‘laligicha bugungi navoiyshunoslik ilmi talablariga muvofiq kelavermaydi. Bizningcha, shunday bo‘lishi tabiiy ham. Negaki, olamdagi barcha narsalar kabi ilmiy tafakkur ham muayyan rivojlanish yo‘lini bosib o‘tadi. Buning ustiga, Abduqodir Hayitmetov yashab faoliyat ko‘rsatgan davrdagi holat hisobga olinadigan bo‘lsa, o‘zgacha bo‘lishi mumkin ham bo‘lmagani oydinlashadi. Negaki, kommunistik mafkura har qanday tadqiqotchi yoki ijodkordan tekshirilayotgan yoxud tasvirlanayotgan hodisaga faqat marksistik nuqtai nazardan yondashishni talab etar va har qanday ilmiy ijod kishisi bu talabga bo‘ysunishga majbur edi. Bu qismatdan Hayitmetov ham qutula olmagan. Shuning uchun ham uning Navoiy ijodi namunalariga sovet davridagi qarashi bilan mustaqillik zamonidagi qarashlari o‘rtasida katta farq mavjud. Domla har qanday holatda ham o‘z qarashlarini Navoiy asarlari matniga tayanib bayon etgani uchun buyuk mutafakkir fikrlarini buzib talqin etmagan.



Buni adabiyotshunos I.Haqqul shunday izohlaydi: “Abduqodir Hayitmetovning serqirra ilmiy merosida ham eskirgan yohud dolzarbligi va ahamiyati susaygan jihatlar bor, albatta. Hammadan ko‘ra buni domlaning o‘zi yaxshi bilgan va muhokamadan o‘tkazgan. Chunki biror-bir adabiyotshunos va munaqqidning bisotida sho‘ro davlati siyosati va mafkurasi ta‘sir ko‘rsatmagan kitob yoki monografiya deyarli topilmaydi. Ammo Navoiy shaxsiyatiga boshdanoq Hayitmetov chin ixlos bilan bog‘langani, Navoiyning ma‘naviy-axloqiy qiyofasini buyuk san‘atkorning o‘z ijod namunalari ko‘zgisida kashf qilishga bel bog‘lagani bois umri qisqa va soxta fikr-mulohazalar uning asarlaridan keng joy ishg‘ol etolmagan”[7. 23].

Navoiy she‘riyatdagi buyuk islomiy va irfoniy qarashlarni butun murakkabligi va serqirraligi bilan o‘rganish o‘tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlandi. Alisher Navoiy tasavvuf adabiyotining yirik vakili bo‘lgani va uning Farhod, Majnun, Layli, Shirin singari qahramonlari Haq oshig‘i bo‘lmish shaxslar ekani singari yangicha yondashuv va talqinlar istiqloq arafasida amalga oshirila boshlandi. Jumladan, taniqli adabiyotshunos olim, Sharq mumtoz so‘z san‘ati va tasavvuf falsafasi bilimdoni Najmiddin Komilov Navoiyning deyarli barcha dostonlarini tasavvuf ta‘limoti asosida yangidan tadqiqot doirasiga tortdi. Uning talqinlariga ko‘ra, bu dostonlarning barchasi insoniy komillik maqomlarining badiiy tasvirlaridan iborat bo‘lib, Majnun Haqdan jazba tekkan majzubi solik bo‘lsa, Farhod tariqat yo‘lini bosib o‘tgan soliki majzub, Iskandar esa ma‘rifat sari yo‘lgan chiqqan tariqat yo‘lchisi va h.k.1

“Xamsa” sho‘ro davri olimlari kabi Hayitmetov tomonidan ham, asosan, dunyoviy, to‘g‘rirog‘i, ijtimoiy talqinda o‘rganilgan bo‘lsa, istiqloq davriga kelib, uning talqin doirasi kengaydi. Nazariy-falsafiy jihatdan Navoiy tayangan manbalar Qur‘oni karim, Hadisi sharif va tasavvuf falsafasi bo‘lgani uchun uni bevosita ana shu manbalardan kelib chiqib tadqiq etilganligini uning keyingi ishlarida ko‘rish mumkin.

Abduqodir Hayitmetovning “Xamsa”da islom nuri”, “Xamsa” va jahon adabiyoti”, “Naqshbandiya Navoiy talqinida” nomli ilmiy maqolalari ulug‘ shoir dostonlari mohiyatiga yangicha qarash aks etganligi bilan e‘tiborlidir. Olim yozadi: “Alisher Navoiy ijodiyotining shakllanishi va rivojlanishida eng muhim rol o‘ynagan omil... Islom va uning asosini tashkil etgan “Qur‘on” hamda Muhammad payg‘ambar hadislaridir. Lekin navoiyshunoslikda bu masala juda kam o‘rganilgan. Ulug‘ shoir

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: К о м и л о в Н. Сукрот – комил инсон тимсоли // Тасаввуф. – Т.: “Ёзувчи”, 1996.-Б. 203–214; Яна ўша муаллиф. Ишқ оташининг самандари // Тасаввуф. -Т.: “Ёзувчи”, 1996. -Б. 214–229; Яна ўша. Ҳикмат ва ибрат достони \\\ Хизр чашмаси. -Т.: “Маънавият”, 2005. – Б. Яна қаранг: Ҳаққул И. Жунун маърифати // Тасаввуф ва шеърият. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1991.-Б. 151–162; Очилов Э. Комилликнинг икки йўли // Навоийнинг ижод олами (Мақолалар тўплами). - Т.: 2001. - Б.123– 144 ва ҳ.к.

asarlarining yuzaga kelishida ularning g‘oyaviy yo‘nalishiga ham, badiiyatiga ham islom dini va uning mazkur kitoblari... shunday darajada katta ta‘sir ko‘rsatdiki, uning o‘rnini boshqa biron narsa bilan almashtirish qiyin”[8. 32].

Islomda Allohga munosabat, uning biru borligiga iymon keltirish, qudratining cheksizligini tan olish, yeru osmonning, jami jonli-jonsiz mavjudotning yaratuvchisi ekanligiga shirk keltirmaslik, shu bilan birga bandaning uning oldidagi qarzlari va burchlariga sadoqat ko‘rsatishi kabi qarashlarning “Xamsa” dostonlaridagi madh, munojot qismlarida quyma holatda badiiylashgani keyingi kuzatishlarida yetakchi o‘rin tutadi. “Hayrat ul-abror”dagi hamd, na‘tlarni to‘liq va izchil tarzda, “Qur‘on” oyatlari va hadislar bilan qiyosan tekshiradi. “Agar Navoiy bu muqaddas kitobdagi fikriy yuksakliklarni chuqur egallamaganda, uning she‘riyatidagi chuqur falsafiylik va insonga xayrixohlik bu darajada baland bo‘lishi... qiyin edi”[9. 39], degan xulosaga keladi.

A.Hayitmetovning Navoiyning xamsanavisligi borasidagi ilmiy kuzatishlarida o‘ziga xoslik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu hol olim buyuk shoirning adabiy-estetik qarashlari “Xamsa” yozish bilan shug‘ullangan ikki yil davomida yuqori sur‘at bilan rivojlanib, dostondan-dostonga chuqurlasha borganini qayd etganida ko‘rinadi. Bunday kuzatish va xulosa boshqa navoiyshunoslar tomonidan ilgari surilmagan edi. U besh dostonda ham badiiy adabiyotning, xususan, poetik ijodning juda ko‘p masalalari o‘ziga xos ravishda she‘riy shaklda tahlil va talqin qilingani Navoiyning badiiy ijod bilan bir qatorda uning nazariyasi bilan ham jiddiy shug‘ullanganidan dalolat berishini ko‘rsatadi. Yuksak estetik natijalar uchun kurashish uning ijodiy muvaffaqiyatlarining eng muhim omillaridan biri bo‘lganini ta‘kidlaydi.

A.Hayitmetov domla o‘z tadqiqotlarida Navoiy “Xamsa”sida muhim o‘rin tutgan masalalardan biri til muammosi ekaniga alohida e‘tibor qaratadi. Navoiyning turkiy tilda “Xamsa” yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishini shunchaki bir badiiy akt emas, balki nafaqat XV asr, hatto, bugungi kunda ham mutlaqo ahamiyatini yo‘qotmagan katta siyosiy hodisa sifatida baholaydi. Navoiy turkiy millatning etnik qiyofasini saqlab qolish va birlashtirish uchun boshqa har qanday vositadan ko‘ra til katta o‘rin tutishi mumkinligini o‘sha vaqtdayoq anglab yetganligi tufayli tengsiz jasorat ko‘rsatib, shunday mashaqqatli asarni ona tilida yaratgani barcha turkiy xalqlar, xususan, o‘zbeklar uchun qiyosi yo‘q fidoyilik ekanini ta‘kidlaydi.

Olim “Xamsa” asarida Navoiy estetikasida yaqqol namoyon bo‘lgan yana bir jihat – badiiy asarda, xususan, dostonda insonni qanday tasvirlash muammosiga diqqat qaratadi. “Xamsa” tadqiqiga doir ishlarida Navoiyning obraz yaratish mahorati,



asarning ijtimoiy ahamiyati, ilgari surilgan masalalar mohiyati, tili va badiiyati kabi qator muammolari o'rganildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. – Тошкент, 1970.
2. Ҳайитметов А. Табаррук излар изидан. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
3. Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Т.: “Фан”, 1959.
4. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 8-jild. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013- yil
5. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Тошкент, Фан, 1996.
6. Ҳайитметов А. “Хамса” ва жаҳон адабиёти // Китобда. Темурийлар даври ўзбек адабиёти.-Т.1996.
7. Ҳаққул. И. Абдуқодир Ҳайитметовнинг ўзбек адабиётшунослигидаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти, 2016. № 3.
8. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Тошкент, Фан, 1996.